

JURNALISTIKA FUNKSIYALARINING NAZARIY ASOSLARI

Hasanboy Madolimov Shuxratovich

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

madolimovhasanboy@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jurnalistika funksiyalari borasidagi tadqiqotchilar ilmiy nazariyalari o'rganilib, bu borada fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: funksiya, tahlil, ta'sir, informatsiya, vosita, tizim, subsistema, kommunikativ, rekreativ, nazariya.

ABSTRACT

This article examines the scholarly theories of researchers regarding the functions of journalism and presents analytical considerations on the subject.

Keywords: function, analysis, influence, information, medium, system, subsystem, communicative, recreational, theory.

АННОТАЦИЯ

В данной статье изучены научные теории исследователей относительно функций журналистики и представлены соответствующие аналитические замечания.

Ключевые слова: функция, анализ, воздействие, информация, средство, система, подсистема, коммуникативный, рекреативный, теория.

KIRISH

Ma'lumki, matbuot jamiyat hayoti in'ikosi ko'rinishlaridan biri, voqelikni bilish, tadqiq qilish va unga qaytadan ta'sir qilish vositasidir. Matbuot hayotdagi fakt, voqea va hodisalarni o'zida aks ettiradi, ularni o'rganadi, baholaydi va jamiyatga qaytadan ta'sir ko'rsatadi. Ommaviy axborot vositalari faoliyatida funksiyalar muhim o'rin tutadi. Funksiya so'zi lotincha "functio" so'zidan olingan bo'lib bajarish, amalga oshirish¹ degan ma'noni bildiradi. Mazkur atamaning ma'nolari xususida turli nazariyotchilar o'z qarashlarini bildirib o'tganlar. Shuni ta'kidlash lozimki, funksiya doimiylik va qonuniylik tusini olgan faoliyat, yumushni bildiradi. Masalan, davlatning vazifasi jamiyatni qonunlar asosida boshqarish, qurolli kuchlarning funksiyasi esa mamlakat mudofaasini ta'minlash kabidir. Muhim ijtimoiy hodisalardan biri bo'lmish jurnalistika, ommaviy axborot vositalarining funksiyalari esa uning xususiyatidan kelib chiqib, uning mohiyatini tashkil etadi hamda ijtimoiy hayotni aks ettirish va unga qaytadan ta'sir qilish bilan belgilanadi.

¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/funktsiya-uz/>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2019-yilda nashr etilgan "Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti" deb nomlanuvchi to'plamning 1-kitobida jurnalistikaning boshqa muhim masalalari qatorida uning funksiyalari haqida ham fikr yuritiladi. "Jurnalistika funksiyasi (lotincha functio – vazifa, xizmat, majburiyat ma'nolarini anglatadi) deyilganda OAV o'z vazifasini amalga oshirish davomida olgan majburiyatlari majmuasi, ya'ni jamiyatdagi bajarishi kerak bo'lgan hayotiy faoliyat usullariga aytiladi.²

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shuni aytish kerakki, jurnalistika nazariyasida matbuot funksiyalari xususida turli xil ta'rif va tavsiflar mavjuddir. Jurnalistikaning vazifalarini nazariyotchi olimlar, xususan MDU professori Ye.Proxorov ushbu sxema bo'yicha tasavvur etishni tavsiya qilgan: maqsad – vosita + harakat usuli – vazifa – natija".³ Garchi rus olimining matbuot funksiyalari borasidagi bu fikri qaysi bir jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, unda jurnalistikaning bosh funksiyalari faqat umumiy tarzda bayon etilganligi ko'rinib turibdi. Zotan, bu formulani faqat jurnalistika emas, inson faoliyatining boshqa sohalari uchun ham taalluqli deyish mumkin.

Keltirilgan sxemadan kelib chiqib, matbuotshunos Ye.Proxorov jurnalistika funksiyalarini olti qismga⁴ bo'ladi. Ularning birinchisi kommunikativ, ya'ni aloqa funksiyasi hisoblanib, uning maqsadi aloqa o'rnatish, auditoriya bilan munosabatga kirishishdan iborat. Tadqiqotchining fikricha bu ommaviy axborot vositalari uchun asosiy funksiya hisoblanadi. Olim jurnalistikaning ikkinchi funksiyasi deb uning "bevosita tashkilotchilik" faoliyatini ko'rsatadi va o'z fikrini ommaviy axborot vositalarining jamiyatda "to'rtinchi hokimiyat" sifatida faoliyat olib borishi bilan izohlaydi. Jurnalistikaning uchinchi funksiyasi esa uning g'oyaviy faoliyati bo'lib, auditoriyaning dunyoqarashiga, mafkurasiga, kishilarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi faktor hisoblanadi. Jurnalistikaning ijtimoiy yumushlaridan biri sifatida uning madaniyatni shakllantirish funksiyasi tilga olinadi. Bu funksiya jamiyatda kishilarni madaniy jihatdan tarbiyalash bilan ifodalanadi. Olim beshinchi funksiyani esa reklama-ma'lumot va oltinchisini rekreativ – ya'ni ko'ngil ochish deb hisoblaydi.

Ko'rinib turibdiki, jurnalistika nazariyasining yirik mutaxassislaridan biri bo'lgan Ye.Proxorovning jurnalistika funksiyalariga bergan ta'riflari muayyan salmoqliligi va shu bilan birlikda biroz murakkabligi bilan xarakterlanadi. Bizningcha, olimning bu ilmiy fikr va qarashlarini jurnalistika funksiyalarining birdan-bir va to'g'ri ta'rifi deyish qiyin. Jumladan, olimning bu ta'riflarida ko'rsatilgan to'rtinchi

² Журналистика назарияси, тарихи, ва тараққиёти., Тошкент, "Ўзбекистон", 2019, 70-бет.

³ Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики - 8-е изд., испр. — М.: Аспект Пресс, 2011, 2011, 58-бет

⁴ Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики - 8-е изд., испр. — М.: Аспект Пресс, 2011, 59-61-бетлар

funksiyasida ommaviy axborot vositalarining madaniy-ma'rifiy informatsiyalar berishi ham ko'zda tutilgan. Holbuki, bu vazifa olim taklif qilgan birinchi – kommunikativ funksiyasiga ham taalluqlidir. Reklama-ma'lumot funksiyasi haqida gapirganda, bu faoliyat faqat ommaviy axborot vositalarininggina yumushi emasligini nazarda tutish kerak. Chunki u reklama-e'lonlar uchun vosita, maydon bo'lib xizmat qiladi, xolos. Jurnalistika funksiyalarining yana bir turi sifatida keltirilgan bevosita tashkilotchilik funksiyasiga kelsak, demakki, matbuot jamiyatga bevosita ta'sir ko'rsatar ekan, bu yumushning ikkinchi jihati, ya'ni bilvosita tashkilotchiligi, hayotga boshqa ijtimoiy institutlar orqali ta'sirini ham unutmaslik kerak. Jurnalistikaning rekreativ – ko'ngilocharlik funksiyasi ham uning yuqorida qayd etilgan boshqa ijtimoiy yumushlaridan ajratib bo'lmaydi. Chunki jurnalistikaning bosh vazifasi u vujudga kelgandan beri axborot yig'ish va tarqatishdan iborat bo'lgan.

Rus matbuotshunos olimlaridan S.Korkonosenko o'zining “Osnovi jurnalistiki”⁵ kitobida jurnalistikaning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-g'oyaviy va ijtimoiy sohalari mavjudligini aytadi va uning funksiyalari ham shulardan kelib chiqishini ta'kidlaydi va matbuot funksiyalarini iqtisodiy-ishlab chiqarish, boshqarish, g'oyaviy-ma'naviy va informasion-kommunikativ kabi to'rt guruhdan iborat deb belgilaydi. Bularidan birinchisi iqtisodiy-ishlab chiqarish sohasi bilan; ikkinchisi jamiyatni boshqarish, ya'ni jurnalistika va siyosatning o'zaro hamkorligi faoliyati bilan; uchinchi – ma'naviy-ideologik funksiyasi esa informatsiya to'plash va tarqatish bilan bog'liqligini anglatadi. Garchi bu ta'rifda jurnalistika funksiyalari ma'lum tizimga solingan bo'lsa-da, uni ham ommaviy axborot vositalari funksiyalarining mukammal tasnifi deya olmaymiz. S.Korkonosenko ommaviy axborot vositalarining eng birinchi vazifasini iqtisodiy-ishlab chiqarish funksiyasidan iborat deb hisoblaydi. Albatta, jurnalistika iqtisod bilan muntazam aloqada bo'ladi, ya'ni ommaviy axborot vositalari – gazetalar, jurnallar, radio, televidenie va internet ijtimoiy hayotning boshqa sohalari qatorida iqtisodiy hayot va ishlab-chiqarishni ham o'zida aks ettiradi. Ammo bu jurnalistikaning bosh vazifasi iqtisodiy-ishlab chiqarish bilan bog'liq degan tushunchani anglatmaydi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi foyda olish, o'zaro raqobat kabi iqtisodiy omillar ham ularning bosh vazifasi iqtisodiy-ishlab chiqarishga qaratilgan degan ma'noni bildirmaydi. Vaholanki, bu tushunchalar faqat ommaviy axborot vositalariga tegishli emas, balki jamiyatning boshqa jabhalariga ham taalluqlidir. Bizning fikrimizcha, olim qayd etib o'tgan uchinchi funksiya – g'oyaviy-ma'naviy funksiyalarni alohida ajratib ko'rsatish unchalik o'rinli emas. Zero, bu funksiya jurnalistikaning bosh funksiyasi – axborot yig'ish va tarqatishning tarkibiy ko'rinishidir. Tadqiqotchining informasion-kommunikativ

⁵ С. Г. Корконосенко, Основы журналистики – 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Аспект Пресс, 2009, 181-бет

funksiyani so'nggi o'ringa qo'yishi esa juda g'ayritabiiy. Ya'ni bu funksiya jurnalistikaning bosh vazifasi hisoblanadi.

Taniqli rus matbuotshunos olimi Ya.Zasurskiy muharrirligida nashr etilgan "Sredstvo massovoy informatsii Rossii"⁶ nomli o'quv qo'llanmasida ham ommaviy axborot vositalari funksiyalariga alohida to'xtalangan va quyidagicha tasnif etilgan:

- Informasion funksiya – auditoriyaga yangiliklarni yetkazishdan iborat. Bularga informasion janrlar asos bo'lib xizmat qiladi.
- Tahliliy funksiya – voqea-hodisalarni, faktlarni tahlil etishga qaratilgan. O'z navbatida bu funksiyaga tahliliy janrlar asos bo'lib xizmat qiladi.
- Ko'ngil ochish, rekreativ funksiya – auditoriyaning dam olishi, xordiq chiqarishi uchun xizmat qiladi.

Jurnalistika funksiyalari borasida g'arb mamlakatlari tadqiqotchilari ham o'z takliflarini berishgan. Jumladan, nemis tadqiqotchilari Kristof Noyberger va Peter Kapernning "Grundlagen des Journalismus" kitobida funksiyalar yetti ko'rinishda bo'lib, ular – o'zini kuzatish, dolzarblik, universallik, shaffoflik, izchillik, ob'ektivlik va avtonomiyadir. O'zini kuzatish – jurnalistika muhim va real voqea-hodisalar haqida axborot beradi, ya'ni siyosatni bilish, iqtisod haqida nimalar sodir bo'layotganini bilish mumkin yoki aksincha.⁷ Dolzarblik – hozirgi davrdagi muhim mavzularni ko'tarib chiqish. Universallik – keng mavzular doirasi. Shaffoflik – kommunikasiyaning ochiqqligi va izchillik – doimiy axborot berish. Obyektivlik – faktlarga asoslanish, ya'ni voqea-hodisalarni real holda taqdim etish. Jurnalist har bir voqea guvohi bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun manbalarga ham ishonishi kerak. Avtonomiya – jurnalistika siyosiy, iqtisodiy va boshqa bosimlardan holi bo'lishi kerak.⁸ Bu qarashda jurnalistika tamoyillari va funksiyalarining aralash berilganligini kuzatish mumkin. Zero, jurnalistika tamoyillari uning funksiyalari qanday tarzda bajarilishini belgilab beruvchi nizomidir.

Jurnalistika funksiyalari borasida o'zbek matbuotshunos olimlari ham qator ilmiy tushuncha va fikrlarni o'rta tashlaganlar. Masalan, F.Mo'minov, Q.Ernazarov, B.Do'stqoraev, X.Do'stmuhammedov, Yo.Mamatova, Yu.Hamdammov, A.Abdusaidov, H.Saidov, A.Nurmatov va boshqalar jurnalistika nazariyasiga doir o'zlarining ilmiy asarlarida matbuotning ijtimoiy mohiyati, uning faoliyati haqida o'z fikrlarini bildirar ekanlar, uning funksiyalari masalasiga ham to'xtalib o'tganlar. Jumladan, taniqli matbuot nazariyotchisi F.Mo'minov o'zining "Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida"⁹ nomli monografiyasida jurnalistika so'zining bir nechta ma'noga

⁶ Система средств массовой информации России – Учеб. пособие для студентов вузов, Под ред. Я.Н. Засурского, М.: Аспект Пресс, 2001, 22-бет

⁷ Christoph Neuberger, Peter Kapern, Grundlagen des Journalismus, Springer Fachmedien Wiesbaden 2013, 26-бет

⁸ Christoph Neuberger, Peter Kapern, Grundlagen des Journalismus, Springer Fachmedien Wiesbaden 2013, 28-29-бетлар

⁹ Мўминов Ф. Журналистика ижтимоий институт сифатида. Т.: Университет. 1998.

egaligini aytar ekan, uning asosiy funksiyasiga to'xtaladi va "birinchi navbatda uning ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan axborotni yig'ish, qayta ishlash va tarqatishdek ijodiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati tushunchasi" mavjudligini ta'kidlaydi. Bu ta'rif esa jurnalistika funksiyalarining asosiy mazmunini tashkil etadi. "Trud jurnalista: professionalizm, tvorchestvo, masterstvo"¹⁰ deb nomlanuvchi o'quv qo'llanmasi va jamoaviy mualliflik tarzida yaratilgan "Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti"¹¹ kabi o'quv qo'llanmalarida ham jurnalistika funksiyalari masalalari qalamga olinadi. Matbuotshunos olim B.Do'stqoraev "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi"¹² deb nomlanuvchi darsligida o'lkamizda 19-asrning oxirida shakllangan o'zbek matbuoti nashrlari tarixini jurnalistika funksiyalarining umumiy nuqtayi nazaridan tadqiq etgan.

Filologiya fanlari doktori Yo.Mamatova o'zining "Sovremennaya periodicheskaya pechat Uzbekistana: sistema, tematika, tendensii i problemi funkcionirovanie"¹³ deb nomlangan monografiyasida jurnalistika funksiyalariga ham alohida to'xtalib o'tgan. U jurnalistikaning ijtimoiy yumushlariga jamoatchilik fikrini shakllantirish, turli xil nuqtai nazarlarni aks ettirish, informasion – xabardor qilishlik, hukumat va jamiyatdagi boshqa davlat institutlarining harakatlari ustidan kuzatish va nazorat olib borish, sharhlash yoki tahlil, informasion ko'ngil ochish va ma'rifiy, evristik, psixologik boshqaruv, ijtimoiy yo'naltirish, kommunikativ (muloqot), ma'rifiy kabi funksiyalarga bo'ladi. Tadqiqotchi o'zining mazkur fikrlarini doktorlik dissertatsiyasida ham keltirib o'tadi.

Filologiya fanlari doktori, professor A.Abdusaidov "Gazeta janrlarining tili va uslubi"¹⁴ nomli dissertatsiyasida OAV vazifalari informativlik-axborot berish, targ'ibot qilish, tashviqot qilish, tarbiyaviylik, reklamalilik va ta'sirchanlikdan iborat deb hisoblaydi.

Matbuotshunos olim M.Xudoyqulov "Jurnalistikaga kirish"¹⁵, "Jurnalistika va publitsistika"¹⁶ kabi va jurnalistika nazariyasiga oid qator ilmiy maqolalarida jurnalistika funksiyalari xususida o'z ilmiy tavsif va tasnifini beradi. U matbuot funksiyalari haqidagi turlicha qarashlar va tavsiflarga, shu jumladan rus tadqiqotchilari Ye.Proxorov, S.Korkonosenkolarning bu boradagi fikrlariga munosabat bildiradi

¹⁰ Мелибоев А., Нестеренко Ф.П., Эрназаров К.Т., Маматова Я.М., Коробкин Д.В. Труд журналиста: профессионализм, творчество, мастерство. - Учеб. пособие. Ч.2. - Т.: Zar Qalam. 2002.

¹¹ Ирназаров Қ.Т., Маматова Я.М., Тошалиев И.Э. Репортёрлик фаолияти назарияси ва амалиёти. – Тошкент, ЎзМУ, 2002

¹² Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент, Гафур Гулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2009

¹³ Маматова Я.М. Современная периодическая печать Узбекистана: система, тематика, тенденции и проблемы функционирования. – Тошкент, Национальное общество философов Узбекистана, 2006

¹⁴ Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филологая фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2005, -- 8-бет

¹⁵ Худойкулов М. Журналистикага кириш. – Тошкент, Университет, 2000

¹⁶ Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. – Тошкент, Университет, 2008

hamda bu boradagi muayyan qarashlarini bayon etadi. Olim jurnalistika funksiyalarini uning falsafiy mohiyati bilan bog'lab tekshiradi. Ma'lumki, jurnalistika, matbuot ijtimoiy hayotni aks ettirish shakllaridan biri, real voqelikni bilish, tadqiq etish, unga qaytadan ta'sir etishning muhim vositasidir. Binobarin, matbuot funksiyalari ham ana shu ijtimoiy qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotchining fikricha, shu tarzda matbuotning ilmiy-falsafiy mohiyati uning funksiyalarini ham belgilaydi. "Demak, matbuotning bosh vazifasi – jamiyat hayotini aks ettirish, ya'ni ijtimoiy informatsiya yig'ish, tahlil qilish va ommaga yetkazib berishdan iboratdir, – deb yozadi olim. – Matbuot nashrlari va ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotini yoritish, uni tadqiq qilish va unga qaytadan ta'sir etish vazifasini bajarib keladi". Muallif bu fikrni davom ettirib, jurnalistika funksiyalarini uch tarkibiy qism – qirralarga bo'ladi va ularni shartli ravishda tasvir, tahlil va ta'sirdan iborat deb ta'riflaydi.

M.Xudoyqulovning jurnalistika funksiyalariga bergan bu ilmiy tavsifi bu borada oldin mavjud bo'lgan tavsif va tasniflarning tadrijiy davomi hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, Ye.Proxorov, S.Korkonosenko va boshqalarning jurnalistika funksiyalari haqidagi keltirgan ilmiy tushuncha va tavsiflarida jurnalistikaning ijtimoiy yumushlaridan eng asosiysi tasvir – ijtimoiy hayotni aks ettirish, xabardor qilish vazifasi ham o'z ifodasini topgan. Shuningdek, yuqoridagi tasniflarda jurnalistikaning eng muhim ijtimoiy yumushi bo'lmish hayot tahlili masalasi ham u yoki bu ko'rinishda aytib o'tiladi. Ijtimoiy so'zning hayotda o'zgarish yasashi, ya'ni jurnalistikaning ta'sir funksiyasi borasida ham qator tadqiqotchilar tegishli fikrlarni keltirib o'tishgan. Olim taklif qilgan ilmiy ta'rif boshqa mutaxassislarining bu masalaga doir fikr va qarashlarining ba'zi jihatlarini o'zida aks ettiradi va lo'nda, aniqligi bilan ajralib turadi.

"Kasblar qanday sharoitda va kim tomonidan bajarilishiga qarab, turli funksiyalarni bajarishi mumkin. Shifokorlar bemorlarni davolashi mumkin, jurnalistlar, agar imkon va xohishlari bo'lsa, muhim axborotlarni tarqatishlari mumkin. Lekin shifokorlar o'z kasbiy mahoratlaridan Aushvits rampasida kuchlilarni tanlab olib, qolganlarni gaz kameralariga yuborishda foydalanishlari ham mumkin. Jurnalistlar esa o'z yozish san'atini diktaturaga uning tahsiniga sazovor bo'lish uchun safarbar qilishi mumkin".¹⁷ Shunday ekan, jurnalistikaning asosiy funksiyalari definititsiyasida subsistematik yondashib bo'lmaydi. Aks holda, bu sisifoz ishini vujudga keltiradi. "Agar ko'ndirish, ishontirish, tashviq qilish, tanqid qilish va manipulyatsiya qilish barcha persuasiv tizimlarga dahldor bo'lsa, jurnalistika kundalik hayot dunyosini shaffof, o'qishli va tushunarli qilish spesifik funksiyasi bilan farqlanadi".¹⁸

XULOSA

¹⁷ Pörksen B., Loosen W., Scholl A (Hrsg.). Paradoxien des Journalismus (Theorie – Empirie – Praxis). VS Verlag für Sozialwissenschaften. – Wiesbaden, GWV Fachverlage GmbH, 2008, - 64-6er

¹⁸ Dernbach B., Quandt T (Hrsg.). Spezialisierung im Journalismus. – Wiesbaden, VS Verlag für Sozialwissenschaften, GWV Fachverlage GmbH, 2009, 54-6er

Umuman olganda, jurnalistikaning asosiy funksiyalari borasida soʻz borganda, uning tizim funksiyalari tushuniladi. Shuning uchun sistema funksiyalari tadqiqida institutsional jihatdan yondashmaslik kerak. Jurnalistika funksiyalarini uch kategoriyaga boʻlib oʻrganish kerak, yaʼni tizim, texnik va institutsional. Jurnalistika funksiyalari taʼrifi shu uch perspektivadan yoritilsa, aniq ifoda kasb etadi. Maʼlumki, maqsad vazifani belgilaydi. Masalan, jurnalistikaga asos solishdan maqsad informasiya yetkazish. Bu jurnalistika tizimi vazifasini yaratdi. Informasiyani qay maqsadda berish institutsional vazifani vujudga keltirdi. Informasiyani qay yoʻsinda yetkazish esa texnik vaziflarni joriy qildi.

REFERENCES

1. Christoph Neuberger, Peter Kapern, Grundlagen des Journalismus, Springer Fachmedien Wiesbaden, 2013
2. Pörksen B., Loosen W., Scholl A (Hrsg.). Paradoxien des Journalismus (Theorie – Empirie – Praxis). VS Verlag für Sozialwissenschaften. – Wiesbaden, GWV Fachverlage GmbH, 2008, – 64-бет
3. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филологая фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2005, – 8-бет
4. Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент, Гафур Гулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2009
5. Журналистика назарияси, тарихи, ва тараққиёти., – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019
6. Ирназаров Қ.Т., Маматова Я.М., Тошалиев И.Э. Репортёрлик фаолияти назарияси ва амалиёти. – Тошкент, ЎЗМУ, 2002
7. Корконосенко С.Г. Основы журналистики – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Аспект Пресс, 2009
8. Маматова Я.М. Современная периодическая печать Узбекистана: система, тематика, тенденции и проблемы функционирования. – Тошкент, Национальное общество философов Узбекистана, 2006
9. Мелибоев А., Нестеренко Ф.П., Эрназаров К.Т., Маматова Я.М., Коробкин Д.В. Труд журналиста: профессионализм, творчество, мастерство. – Учеб. пособие. Ч.2. – Т.: Zar Qalam. 2002.
10. Мўминов Ф. Журналистика и жтимоий институт сифатида. Т.: Университет. 1998.
11. Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики – 8-е изд., испр. – М.: Аспект Пресс, 2011
12. Система средств массовой информации России – Учеб. пособие для студентов вузов, Под ред. Я.Н. Засурского, М.: Аспект Пресс, 2001
13. Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. – Тошкент, Университет, 2008
14. Худойкулов М. Журналистикага кириш. – Тошкент, Университет, 2000
15. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/funktsiya-uz/>